

TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11183304>

Ahmedbekova M

Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi,

Fag'ona davlat universiteti,

O'zbekiston, Farg'ona shahri

Annotatsiya

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez o'zgarib borayotgan turmush sharoiti, ta'lif tizimiga ta'sirchanlik va tezkorlik xossalaring berilishini, ya'ni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va iste'dodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi. O'quv tarbiya dasturlarining ta'sirchanligi va tezkorligini ta'minlash ta'lif jarayonini differentsiatsiyalash muammosi bilan uzviy bog'liq. Hozirgi sharoitda, so'zda emas, ishda uzluksiz ta'lif tizimiga ta'lifni differentsiyalash printsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarning nazariy bilimi va kasbiy tayyorgarligicha, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bo'lgan talab keskin ortmoqda. Innovatsion usullarni o'quv jarayoniga joriy etishda quyidagi yo'riqnomalarga rioya etish lozim:

- innovatsion usullar haqida ma'lumotga ega bo'lish, ularning mazmun – mohiyatini to'liq tushunib etish va o'quv jarayonida qo'llash;
- innovatsion usullarni har bir fan va undagi har bir mavzu xususiyatidan kelib chiqqan holda qo'llash;
- innovatsion usullardan o'quv jarayonida foydalanishda ta'lifning didaktik tamoyillari uzviyligiga erishish;
- innovatsion usullarni o'quv jarayoniga joriy etishda ta'lif oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'limni differentsiatsiyalash zamonaviy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U o'quvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha sub'yektlarning o'zaro samarali ta'sirini ta'minlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari - oila, uzlucksiz ta'lim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamg'armalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning o'z ichidagi samaradorlik faoliyatini ko'tarish, ikkinchidan, samarali ta'sirchanlik, ya'ni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash asosida jamiyat tomonidan oliy ta'lim muassasasi, kasb-hunar kolleji, akademik liqey, maktab oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak.

Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni echishda o'z o'rnida ishlatsa, shubhasiz, faoldir. Zero, ta'lim texnologiyalari ham darsda talabalar faolligining yoqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi.

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim tizimini konceptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarini shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan to'ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini loyihalashtirishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlmashg'ulotning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi o'quv jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liq.

O'quv jarayonini loyihalashtirish quyidagi uch bosqichdan iborat:

- o'quv maqsadlari va natijalarini belgilash;
- natijalar asosida nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o'quv jarayonining texnologik xaritasi (dars ishlanmasi xaritasi)ni ishlab chiqish.

O'quv jarayonini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, maqsadini, o'tilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini

oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham talabaning hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Zamonaviy ta'lismi texnologiyasi quyidagi elementlardan tashkil topgan:

1. Ta'lismi beruvchi;
2. Ta'lismi oluvchi;
3. Ta'lismi shakllari;
4. Ta'lismi maqsadi;
5. Kutilayotgan natija;
6. Ta'lismi metodlari;
7. Ta'lismi vositalari;
8. Nazorat va baholash.

Elementlardan eng asosiysi maqsad va kutilayotgan natijalardir. Demak, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, o'qitishning texnik vositalarini asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Natija esa baholanmog'i zarur, talabaning bilimini baholash doimo "Nimani baholamoq kerak?" degan savol bilan bog'liq.

Bunga "o'qitish va o'rgatish maqsadi va vazifalariga erishganlik darajalarini baholash" deb javob berish zarur. Bu holda maqsad o'qituvchining faoliyatiga qaratilganligi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, gapirib berish va hokazo), vazifalarga esa (ingliz adabiyotiga asoslanib) o'rgatish natijalari kiritilganligi foydaliroq. Agar vazifalar aniqlangan bo'lsa, unda o'quv natijalarini aniqlash uchun nazorat topshiriqlari tuzish lozim. Bular og'zaki, yozma, nazorat savollari yoki test bo'lishi mumkin.

O'qituvchi har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilishi, uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi muhim ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ta'lismi muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, ta'lismi muassasalari nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular mahalla, oila, jamoat

birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollilik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdan, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdan, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Oliy ta'lif muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lif texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lif texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lif texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lif texnologiyalarining o'ziga xos jihatni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra, talabalarning individual, ikkita talaba birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rnila foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lif olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lif olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining "guruhlarda o'qitish", "zig-zag" yoki "arra", "kichik guruhlarda ijodiy izlanish"ni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnila foydalanish yo'llarini belgilaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi kunda olimlar "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda ob'ekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin.

Buning uchun oliy ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamenti kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or pedagogik tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarini tuzish va amalga oshirish; darslik, o'quv qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni taqozo etadi.

Shuning uchun ham zamonaviy ta'lim texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan pedagog ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Demak, zamonaviy ta'lim texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish pedagogning tayyorgarlik darajasini birinchi o'rinda hal qilish bugungi kun dolzarb muammolaridan biridir.

Ta'lim oluvchilarni baholashda mezonli baholash shaklidan foydalilanadi. Ushbu baholash baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritilgan natijalarini bilim, ko'nikma va malakalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Baholashning bu shaklida ta'lim oluvchilar xaqqoniyligi, xolis baholanadilar va kuchli guruhlarni yaxshiroq farqlash imkoniy yaratiladi. Qisqa qilib aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish zarur.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi, avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq. Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'yan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xaritani tuzish o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tojiev., Salaxutdinov R., Barakaev M., Abdalova S. Ta'limgarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2001.
2. Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii. – T.: 1999.
3. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). Role of ethical culture in preventing violence among spupils. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
4. Teshaboev, M., Karimov, U., & Karimova, G. (2023). SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF APPLIED PHILOSOPHY. *Oriental Journal of Social Sciences*, 3(05), 69-80.
5. Anvarovna, D. J. (2024). LEGAL ASPECTS OF THE FORMATION OF SOCIAL ACTIVITY IN YOUNG PEOPLE. *Miasto Przyszłości*, 46, 745-751.
6. Boboyeva, Z. A., & Axmedbekova, M. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS AND FUNCTIONS OF PEDAGOGICAL COMMUNICATION. *Modern Science and Research*, 2(5), 864-874.
7. Axmedbekova, M., & Siddiqova, F. (2023). DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(5), 843-853.
8. Zulfiya, B., Rakhmonali, S., Murodjon, K., & Makhpuzakhon, A. (2021). Drawing Tools And Design Elements In Geometric Drawing. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
9. Kaxxarovna, A. M., & Qizi, D. M. Y. (2022). EFFECTIVE ORGANIZATION OF CLASSROOM ACTIVITIES IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
10. Qahhorovna, A. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHGULOTLARINI TASHKIL ETISH TEKNOLOGIYALARI. *IQRO*, 2(2), 553-561.
11. Ахмедбекова, М. (2023). ОИЛА ТАРБИЯСИ ВА УНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Research Focus*, 2(3), 164-168.
- 12 Ahmedbekova, M. (2022). THE IMPORTANCE AND SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPED ARTISTIC AND AESTHETIC CREATIVITY OF THE YOUNG GENERATION AND FINE ARTS IN SOCIETY. *Science and Innovation*, 1(8), 112-119.
13. Mahpuza, A., Rahmatjonzoda, A., & Zilola, X. (2022). ATTITUDE TO MATHEMATICS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(11), 208-212.
14. Ahmedbekova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАСВИРИЙ САНЬАТНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1(B8), 112-119.

15. Maxpuzakhon, A. (2022). Methods of Using Modern Pedagogical Technologies in Organizing Fine Arts Lessons. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 268-271.
16. Gulnoza, K. (2023, May). INFORMATION SECURITY AND MORAL THREAT. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 9, pp. 53-57).
17. Maxamadovna, M. N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE INFORMATION SPHERE IN CIVIL SOCIETY. *Miasto Przyszłości*, 46, 727-735.
18. Mamajonova, D. (2024). THE RELATIONSHIP OF EDUCATIONAL INNOVATIONS, MORAL EDUCATION AND SPIRITUAL EDUCATION. *Miasto Przyszłości*, 46, 760-767.
19. Nazokat, A., Ibrokhim, Y., & Makhpuzakhon, A. (2021). Factors of development of fine arts. *European Scholar Journal*, 2(9), 4-6.
20. Kakharovna, A. M., Tadjimatovich, Y. M., Rakhmatovich, S. O., & Mirzahamdamovna, Q. B. (2021). Modern Approaches to the Teaching of Fine Arts. *Solid State Technology*, 64(2), 4250-4254.